

NODIR JONUZOQ IJODIDA SEVGI, HAYOT VA INSONIY HIS- TUYG‘ULAR MASALASI

Israilov G‘ayrat Boyzoq o‘g‘li

f.f.f.d., PhD, Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi,

(OrcID 0000-0002-9234-6759)

isroilov19920760@gmail.com

Usmanqulov Nodirbek Abilqosimovich

Paxtakor tumani 9-maktab Yoshlar masalalari

va ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar bo‘yicha

direktor o‘rinbosari

Annotatsiya: *Nodir Jonuzoq deyilganda ijtimoiy ruhda she‘r bituvchi shoir, tarixiy mavzularning bilimdoni bo‘lgan adib qiyofasi gavdalanadi. Maqolada shoirning vaqtli matbuotda e‘lon qilingan she‘rlari va eng asosiysi, munaqqid-adabiyotshunoslarning ijodkor haqidagi tasavvurlari hamda ijod namunalari bayon etilgan. Shoirning ijtimoiy “men”i, she‘rlarida ilgari surilgan jamiyatga daxldor g‘oyalar haqida xo‘b va ko‘p yozishgan-u, ammo eng asosiy jihat, shoirning asl shoir ekanini belgilovchi xususiyat – uning poetik dunyosi, nozik va nafis idroki, hayotbaxsh tuyg‘ulari aks etgan obrazlari haqida kam to‘xtalangan.*

Kalit so‘zlar: *Sizni sevar edim, ishq, ramziylik, metafora, tazod (antiteza) personifikatsiya (insonlashtirish), tasviriylik.*

Nodir Jonuzoqning – she‘riyatda ijtimoiy-publitsistik ruh rosa gurkirab turgan pallada chop etilgan “Sizni sevar edim” kitobini qayta varaqlarkanman, shoirning haqiqiy boyligi davr ruhi aks etgan she‘rlarida emas, balki shabnamday tiniq, yoqutday bebaho tuyg‘ulari yarqirab turgan tizmalarida ekan, degan xulosaga keldim. Eng qizig‘i, shoir ijodining asosiy qismini xuddi shunday toza she‘rlar tashkil qilishini anglab, yanglish tasavvurimdan xijolat chekdim, o‘zining aldanganini sezgan boladay jichcha alam tuydim. Va daf‘atan Nodir Jonuzoq ko‘z oldimda bor bo‘y-basti bilan namoyon bo‘ldi. Uning o‘ta nafis va serjilo obrazlari meni hayratga ko‘mdi, lol qoldirdi. Chinakam she‘riyatning qudratini, sehrini his qildim: uning ta‘sirida zamon va makon qarshiligini yengib, o‘zligimga qaytdim...

Shu pallada Salim Ashur gaplari esimga tushadi: Naqadar oddiy, soddagina ifoda. Naqadar kuchli, teran qoida. “Sizni sevar edim” ning qo‘lyozmasini o‘qib, oddiylikdan murakkablikkacha, soddalikdan teranlikkacha bo‘lgan satrlar masofasini, she‘riy yo‘lni hislarim bilan yurib o‘tgandek bo‘ldim. Bu masofa, bu yo‘l meni shoirga emas, o‘zimga yaqinlashtirdi go‘yo.

Zamon shoiri shoirlik qiyofasi emas, bir necha hayot bilan yashaydi, nazarimda. Ishq-muhabbat, ish-mehran hayoti, ro‘zg‘or-turmush hayoti, do‘st-birodarlar (agar bor bo‘lsa) hayoti... She‘r hayoti esa uni bu narsalardan doimo chalg‘itib turadi. Yashashiga halaqit beradi. Balki shu hissiy o‘tga Nodir Jonuzoq Rauf Parfining faqat shoir haqli baxtsiz

bo‘lmoqqa...” misrasini eslaydi. “Men-ku yashayapman sinsa-da torim...” – Shoir shu hayotning barchasida baravar yashash azobini boshidan kechirmoqda.

“Sizni sevar edim...” bir necha mustaqil she‘rlardan tarkib topgan, lekin kitobda yagona lirik qahramon – MEN bor. U she‘rlarda ham, dostonida ham tentirab yuraveradi. Kitobning oxirgi sahifasidan keyin esa yoningizga kelib o‘tirib oladi. Siz bilan o‘tirib-turadi, Siz bilan yuradi...

Una hayday olmaysiz.

Uning yuragi ertalabki quyoshga o‘xshaydi. Sizga hayrat bilan qaraydi. Dunyoni sevadi. Ko‘rgan narsalari uni qoniqtirmaydi, birovdanmas, o‘zidan xafa.

Lirik qahramon – Gul. Qo‘llargina emas, nigohlar ham unga ozor beradi. U ozurda...

Bu kitob oshiq odamga o‘xshabdi, tabiatli, ruhli, kayfiyatli...

Muhimi shu.

Bu kitobni mahzun, kimdir tushkun, kimdir jo‘shqin, kimdir sokin deyishi mumkin. To‘g‘ri. Lekin bu muhim emas!

Shu she‘rlar meniki bo‘lsa edi. Koshki... Kitobni o‘qisa kishida shunday istak paydo bo‘ladi.

Lekin boshqaga o‘xshamagan bu shoir Nodar Jonuzoq!

Va hamisha shundayligicha qolsin!

(Salim Ashur, 2005-yil 16-dekabr)

“Sizni sevar edim” qo‘limdan yetaklab, meni zangori osmon ostidagi yam-yashil sayhonlikka olib chiqdi. Bunday go‘zal, maftunkor manzarani ko‘rib, qay darajada o‘zimdan uzoqlashganimni, aslida men ham shu tabiiy uyg‘unlikning ajralmas bir bo‘lagi ekanimni ich-ichimdan his qildim. Va iqrar bo‘ldim:

Nahot iqsh degani so‘zsiz muammo,

Nahot bu g‘amlarning yo‘qdir hech haddi?!

Sening ko‘z yoshingni bilmayman, ammo

Mening yupatimga so‘zim qolmadi.

She‘r misralari inson ruhiyatidagi chuqur iztirob va izlanishlarni aks ettiradi. Shoir o‘zining ichki kechinmalari orqali insoniy dard, g‘am va tasalli topish muammolarini yoritadi.

She‘r insonning iztiroblari, so‘z bilan ifoda qilib bo‘lmaydigan og‘riqlar va tasalli topish qiyin bo‘lgan ruhiy holatlar haqida. Shoir “Nahot” so‘zi bilan hayrat va ishonchsizlik ifodasini beradi. Birinchi ikki misrada u inson dardlarining chegarasizligini ta’kidlaydi: “Nahot iqsh degani so‘zsiz muammo” – bu misrada shoir “iqsh” so‘ziga alohida urg‘u beradi. “Ishq” – jimlik, so‘zsizlik, ichki sukut ma’nolarini anglatishi mumkin. Bu yerda so‘z bilan ifodalanmaydigan, til bilan tasvirlab bo‘lmaydigan iztirob haqida so‘z bormoqda. Ikkinchi misrada esa, “Nahot bu g‘amlarning yo‘qdir hech haddi” – bu misra inson dardlarining cheksizligi va ularga biror chora topib bo‘lmazligi haqida. Shoir g‘amlarni modda sifatida tasavvur qiladi va ularning chegarasi bormi, degan savolni beradi.

Uchinchi va to‘rtinchi misralar she‘rning emotsional cho‘qqisiga aylanadi: “Sening ko‘z yoshingni bilmayman ammo” – bu misrada shoir dardni his qilayotgan boshqa birovga

(yoki o‘ziga) murojaat qilmoqda. U ko‘z yoshlarining sababini tushunishini aytmoqda, ammo shu bilan birga uning og‘irligini to‘liq his qila olmasligini ham tan olayotgandek. “Mening yupatimga so‘zim qolmadi” – bu misra insonning iztirob oldida so‘zsiz qolishi, tasalli bera olmasligi va so‘zlarning ojizligidan darak beradi. Shoir his-tuyg‘ularni tasvirlashda o‘zining eng kuchli quroli – so‘zdan ham mosuvo bo‘lishi mumkinligini anglatadi.

Bunda Nodir Jonuzoqning o‘ziga xos badiiy-poetik uslubga ega ekanligini ko‘ramiz:

1. Ritorik savollar (savol ohangi) – “Nahot bu g‘amlarning yo‘qdir hech haddi?” so‘roqli jumlasini orqali shoir o‘quvchini o‘zining ichki kechinmalariga hamroh qiladi va uni o‘z javobini qidirishga undaydi.

2. Tazod (antiteza) – “so‘zsiz muammo” va “so‘zim qolmadi” iboralari o‘rtasida keskin qarama-qarshilik bor. Shoirning kasbi yoki tabiati so‘z bilan bog‘liq bo‘lsa-da, aynan so‘z unga yordamsiz bo‘lib qolmoqda.

3. Takror (anafora) – “Nahot” so‘zi ikki marta takrorlanishi she‘rning ohangini kuchaytiradi va iztirob hissini oshiradi.

4. Metafora – “g‘amlarning haddi” tushunchasi orqali inson ruhiy og‘riqlari cheksiz hududdek tasvirlanadi.

5. Parallelizm – birinchi ikki misra muammo va g‘amning chegarasizligi haqida bo‘lsa, oxirgi ikki misra inson va so‘zning ojizligi haqida. Bu parallel tuzilish she‘rning ichki uyg‘unligini ta‘minlaydi.

Bu misralar inson ruhining og‘riqli izlanishlarini, dard va iztirob oldida so‘zning ojizligini mahorat bilan yoritadi. She‘rda insoniy g‘amlarning cheksizligi va ularni tasalli bilan yengishning qiyinligi poetik shaklda ifodalangan. Shoirning ichki holati va hayratini o‘quvchi ham his etadi, bu esa she‘rning ta‘sirchanligini oshiradi.

Shunda yana avvalgi sezimlarim uyg‘onganday bo‘ldi. Avval eshitmaganim minglab ovozlarni ilg‘ay boshladim. Ular orasida kapalakning qo‘shig‘ini, giyohlarning shivirini, yulduzlarning jarangini, oyning kishnashini farqlash qiyin emas edi. Go‘yo tomirimda oqayotgan qon qizil emas – yashilday, ko‘zlarimda yosh emas – shabnam aylanayotganday, ikki yonimda qo‘l emas – qanot borday tuyulaverdi. Nogoh “Nahot iqsh degani so‘zsiz muammo” deya, ishq asiriga aylandim. Endi boshim uzra uchib o‘tgan qush ham xayolimning davomiday tuyular, tunlari entikkanimdan nafas olmay yotar, daraxtlarning kulgisini tinglab, ko‘zyoshlarini labim bilan yalar edim. Ha, oppoq edi boshda bu dunyo: ko‘cha oppoq, kechalar oppoq, qanday yaxshi ekan bolalik, oppoq ranglar bilan yashamoq...

Bu beg‘ubor olamdan sira ketgim kelmay qoldi. Endi avvalgiday chala tushgacha mudrab yotmasdim: tong-sahardan turvolib, oppoq ko‘ylagimni kiyardim-da, dalalarni kezishga tushardim. Yashil maysalarning barglariga lab bosib, eng inja sirlarimni quloqlariga shivirlardim, ularni qizaloqday erkalagim kelar, hayajonimni bosolmasdan toychoqday to‘rt tomonga irg‘ishlar, xullas, yon-atrofidagi hamma narsa – shitirlagan kechki yomg‘ir ham, tumanlarni quchoqlagan tong, qop-qoraygan dalayu qir ham, bari menga tanish, qadrdon ekanini anglab, baxtdan masrur edim. Har kunim shu taxlit kechar,

keyin tun asirasi – oyning yelkasiga qo‘limni qo‘yib, Yuragimni ochardim. Va shunda birdan mo‘jiza sodir bo‘lardi: xira tun yorishib, olam oppoq oydinlikka chulg‘anar edi...

Yana bir she‘riga to‘xtalar ekanmiz:

Kechirasiz, qo‘limdagi nay...

Sahrodanmi, topib olibman.

Kechirasiz, o‘zim ham bilmay,

Sizni yaxshi ko‘rib qolibman.

Nima deysiz, quloqlarim ding,

O‘ylab ko‘ring yaxshilab, mayli.

Rad qilsangiz, sahroga oting

Qo‘limdagi shu o‘ksik nayni.

She‘r qahramoni sevgi his-tuyg‘ularini go‘yo tasodifan, o‘zi bilmagan holda payqagan. U sevgining kuchini anglab, uni ifodalashga intilmoqda, lekin shu bilan birga, sevgining rad etilishi ehtimoli uni chuqur iztirobga soladi. Nay timsoli esa uning ichki kechinmalari va sevgining nolishiga ishora qiladi. “Kechirasiz, qo‘limdagi nay...”, “Nay” – ramziy obraz sifatida inson yuragining holatini aks ettiradi. Nay odatda ichki dard va mungning ifodasi sifatida ko‘riladi. Shoir “qo‘limdagi nay” orqali o‘z his-tuyg‘ularini o‘qirmandaga yetkazmoqda. “Kechirasiz” so‘zi bilan u sevgi izhorini muloyimlik bilan boshlaydi, bu esa uning ojizligini va noaniqlik bilan to‘qnash kelayotganini ko‘rsatadi.

“Sahrodanmi, topib olibman.” Sahro – yolg‘izlik, tanholik, kimsasizlik ramzi. Shoir sevgi tushunchasini sahrodan topilgan nay bilan bog‘lab, bu tuyg‘u uning yuragiga kutilmaganda kirib kelganini ta’kidlaydi. Va rubobiy tuyg‘ular davom etadiki, shoir sevgilisidan, avvalo, uzr so‘raydi: “Kechirasiz, o‘zim ham bilmay, Sizni yaxshi ko‘rib qolibman.” Bu misralar sevgi his-tuyg‘usining tabiiy ravishda, oldindan rejalashtirilmagan holda paydo bo‘lishini tasvirlaydi. Sevgi – inson ixtiyoriga bo‘ysunmaydigan kuch, uni oldindan rejalashtirish yoki undan qochish imkonsiz.

Keying misralarda esa: “Nima deysiz, quloqlarim ding, O‘ylab ko‘ring yaxshilab, mayli.” deya, qahramon sevgisiga javob kutib, hushyor va hayajon bilan tinglashga tayyor turadi. U sevgisining natijasidan qat’iy nazar, sabr bilan kutishga tayyor ekanligini bildiradi. Biroq rad qilsa ham, ranjimaydi, balki, shunchaki...: “Rad qilsangiz, sahroga oting, qo‘limdagi shu o‘ksik nayni.” “O‘ksik nay” – qahramonning iztirobi va armoni timsoli. Agar sevgisiga javob olmasa, uning qalbi bo‘shliq va yolg‘izlikka botadi, xuddi sahroga uloqtirilgan nay kabi. Sahroga qaytish – rad etilgan sevgi natijasida inson yana yolg‘iz qolishini ifodalaydi. Bu she‘r nozik, lirika bilan sug‘orilgan bo‘lib, inson qalbidagi sevgi va uning ojizligi haqida hikoya qiladi. Nay – inson qalbining nolishi, sahro esa yolg‘izlikning ramzi sifatida ishlatilgan. Shoir sevgining kutilmaganda paydo bo‘lishi va rad etilgan taqdirda qanday armon va iztiroblarga sabab bo‘lishini juda go‘zal poetik ifoda bilan tasvirlangan.

O‘layapman – ranjimang tag‘in,

Qololmayman bu yerda sobit.

Atirgulning shoxchalaridan

Yasaganman o‘zimga tobut.

She‘r ramziy ma‘noda shoirning o‘limini tasvirlaydi, ammo bu o‘lim motamga emas, go‘zallikka, hayotning o‘ziga xos tabiiy yakuniga ishora qiladi. Shoir tabiat bilan uyg‘unlikda vafot etadi va uning joni o‘zining she‘rlari, gul va tabiat bilan yashashda davom etadi. “O‘layapman – ranjimang tag‘in, Qololmayman bu yerda sobit.” Shoir o‘limni oddiy, tabiiy hodisa sifatida tasvirlaydi. “Ranjimang” degan so‘zi bilan o‘limi fojia emas, balki muqarrar haqiqat ekanini ta‘kidlamoqda. “Atirgulning shoxchalaridan Yasaganman o‘zimga tobut.” Shoir o‘zining tobutini atirgul shoxlaridan yasaydi. Tobut – odatda fojia va qayg‘u ramzi, ammo bu yerda u go‘zallik va tabiat bilan uyg‘unlikda tasvirlanadi. Shoirning o‘limi ham go‘zal va sokin bo‘lishi kerak. “Jar soladi mushfiqim – sabo, Chorlayverar do‘st-u g‘animni. Mehmon bo‘lgan Azroil bobo Shabnam bilan yuvar tanimni.” “Sabo” – mayin shamol, tabiatning eng yoqimli nafasi. U shoirning o‘limini e‘lon qiladi va do‘stu dushmanlarni xabardor qiladi. Azroil esa – o‘lim farishtasi, lekin bu yerda u qo‘rqinchli emas, balki mehmondek tasvirlangan. U shoir tanini shabnam bilan poklaydi, bu esa o‘limning tabiiy go‘zalligi va pokligi ramzi bo‘lib xizmat qiladi.

Shoir keying baytlarda pafosni yana kuchaytiradi: “Hayotimni muqaddas bilib, Urfurum qilurlar ul-bul. She‘rlarimni tilovat qilib, Janozamni o‘qiydi bulbul.” Bu misrada hayotning qadrini anglash va uni hurmat qilish g‘oyasi bor. Shoir vafot etganidan keyin ham uning shaxsi qadrlanadi. Bulbul – she‘riyat va muhabbat ramzi. Shoirning janozasi diniy odatlar emas, balki she‘rlari orqali o‘qiladi. Bu, uning abadiy yashashining poetik ifodasidir.

“Yaproqchalar soladi uvvos, O‘ksimasin maysalar nega?!”

Ko‘milaman eng toza, eng soz, Eng chiroyli gulning tagiga.

Ko‘m-ko‘k rangga kiradi jonib, Chayqaladi zil-zambil hislar.

Yuragimni alvonday yopib, Tobutimni ko‘tarar qizlar!

Tabiatning har bir qismi shoirning o‘limini sezadi va qayg‘uradi, ammo bu qayg‘u ham tabiiydir. Shoirning vasiyati – u eng go‘zal joyga, eng nafis gulning ostiga ko‘milishi kerak. Bunda tabiat bilan uyg‘unlik va hayotning chiroyli yakuni tasvirlangan. Ko‘k rang – umid, osmon, poklik timsoli. Shoirning o‘limi ham g‘amgin hodisa emas, balki yorug‘lik va yuksalishga ishora qiladi. Shoirning yuragi alvon (qizil) mato bilan o‘ralgan, bu uning yuragining ehtiros va hayotga bo‘lgan muhabbatini ko‘rsatadi. Qizlarning tobutilni ko‘tarishi esa, go‘yoki, shoirning she‘rlari unga muhabbat qo‘ygan ayollar tomonidan yodda saqlanishi va ularni ilhomlantirishini anglatadi.

She‘rda juda chiroyli ramziylik bor – Shoirning o‘limi haqiqiy emas, balki poetik, falsafiy ma‘noda berilgan. Tobut, atirgul, shabnam, bulbul – barchasi ramziy ma‘noga ega. “Azroil bobo shabnam bilan yuvar tanimni”, bu joyda o‘lim poklik bilan bog‘langan, yuvinish marosimi esa yomg‘ir yoki tabiat suvi bilan ifodalanadi.

Bundan tashqari she‘rda tazod, personifikatsiya hamda tasviriylilik bor: O‘limga motam yoki qo‘rquv emas, balki go‘zallik, poklik va tabiatning uyg‘unligi orqali qaraladi. “Bulbul janoza o‘qiydi”, “Sabo jar soladi”, “Yaproqchalar uvvos qiladi” kabi ifodalar (Personifikatsiya (insonlashtirish)) tabiatning tirik ekanligini ko‘rsatadi. She‘rda vizual va

tasavvur uyg‘otuvchi obrazlar juda ko‘p: nay, sahro, bulbul, shabnam, atirgul, qizlar, maysa – barchasi yorqin tasvirlarni uyg‘otadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sizni sevar edim. Nodir Jonuzoq, she‘rlar. Zarqalam, T.:2006
2. “Hurriyat” gazetasi, 2012, № 3
(“Ovoza” gazetasida chop etilgan.) Manba: Orif Tolib blogi